

## AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TADBIRLARI XARAJATLARINI SAMARALI REJALASHTIRISH YO'LLARI

Nafisa Ablakulova, Matlyuba Gafurova  
TDIU SMMT-78 guruhi talabalari

Ma'lumki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini samarali amalga oshirishda davlatning maqsadli jamg'armalari ham muhim ahamiyatga ega. Ularda shakklantirilgan moliyaviy resurslar orqali davlatning asosiy islohotlari bilan bog'liq masalalari hal etiladi.

Bugungi kunda davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning zamirida mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish ularni shakllantirish masalalari dolzARB masalardan bo'lib kelmoqda. Davlat budgeti va davlatning maqsadli jamg'armalarini shakllantirish, ular moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish masalalari bugungi kundagi dolzARB masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Respublikamizda budget ijrosini belgilangan parametrlar doirasida amalga oshirish, budgetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, budget intizomini ta'minlash budget tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Budget jarayonlarida, jumladan, budget ijrosini qat'iy ta'minlashda budgetdan birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish va boshqa olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ular manfaatlarini ta'minlash davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. "O'zbek modeli" sifatida tan olingan mustaqil taraqqiyot yo'limizning negizida mashhur besh tamoyildan biri bo'lmish kuchli ijtimoiy siyosatni olib borish bugungi kunda o'zining yuksak samaralarini bermoqda. Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayonida aholi turmush tarziga keskin salbiy ta'sir ko'rsatadigan oqibatlarni imkon qadar kamaytirish, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, etim va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya etish bo'yicha keng ko'lamli hamda qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Ijtimoiy iste'mol fondlari va davlat budgeti mablag'larini sarflashning ustuvor yo'nalishlaridan biri mehnatga qobiliyati bo'lmagan va keksa fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, aholining ayrim qatlamlariga (yolg'iz onalarga, boquvchisini yo'qotgan oilalarga, ko'p bolali oilalarga va boshqalarga) moddiy yordam ko'rsatish hisoblanadi.

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'larning hajmi mamlakat iqtisodiy o'sish darajasi va moddiy ishlab chiqarish sohasi holatiga bog'liqdir.

Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish, pensiya va nafaqalarni to'lashga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larning maqsadli va adolatli sarflanishida ustidan nazoratni kuchaytirish, budget nazoratini aniq va to'g'ri tashkil qilish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat budgeti orqali davlat ishlab chiqarishni kengaytirish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun taqsimlanadigan va foydalaniladigan milliy daromadning bir qismini markazlashtiradi. Daromadlarning o'z vaqtida va to'liq kelib tushishi hamda davlat budgeti mablag'laridan maqsadli foydalanish davlat budgeti ijrosi jarayonining to'g'ri tashkil etilganiga bog'liqdir.

Hozirgi kunda respublikamizda ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshilash maqsadida, shuningdek joylardagi "Mahalla" jamg'armalari, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruvi organlari, ya'ni mahalla fuqarolar yig'inlari, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy va mahalliy bo'limlari ish olib boradi. Ular tomonidan respublikamiz aholisiga ijtimoiy yordamning quyidagi turlari ko'rsatilmoqda:

- bolali oilalarga nafaqalar - homiladorlik va tug'ruq bo'yicha nafaqa; bola tug'ilganda bir marta beriladigan nafaqa; bola 2 yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan nafaqa va voyaga etmagan bolalari bor oilalarga nafaqa;
- ijtimoiy nafaqalar - tug'ma nogironlar va boshqa toifalardagi nogironlarga, ish staji yo'q qariyalarga, boquvchisini yo'qotgan oilalarga;
- ijtimoiy ta'minot muassasalarini saqlash - qariyalar va nogironlar uylari mehribonlik uylari, kasalmand bolalar uchun internatlari;
- turli imtiyozlar - bepul va arzonlashtirilgan narxda transport vositalari va nogironlar aravachalari berish, sanatoriy-kurort yo'llanmalari bilan ta'minlash, ortopediya-protezlash vositalari bilan bepul ta'minlash, kommunal xizmatlar uchun to'lovlar va soliqqa doir imtiyozlar;
- kam ta'minlanganlik bo'yicha nafaqalar.

Bunday ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirishning asosiy manbai davlat budgeti va budgetdan tashqari jamg'armalar hisoblanadi.

Davlat budgeti mablag'lari hisobidan bolali oilalarga nafaqalar, keksalar va nogironlar uyidagi fuqarolarni boqish va xizmat ko'rsatish, nogironlarni mehnatga o'rgatish, ishga joylash, protez qo'yish, Chernobil AESdagi falokatda qatnashganlarga, nogironlarga moddiy yordam beriladi.

Bolalar uchun beriladigan nafaqalarni moliyalashtirish davlat budgeti mablag'lari hisobidan, shuningdek mulkchilik shakllaridan qat'i nazar korxona, muassasa va tashkilotlarining mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi.

Ijtimoiy ta'minot maqsadli mablag'lari manbalari ichida budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ham alohida o'rinni egallaydi. Pensiya ta'minoti – bu mamlakatimizda fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan moddiy ta'minotni taqdim etish maqsadida tashkil etilayotgan huquqiy-

tashkiliy institut va normalar majmuidir. Shu bois pensiya ta'minoti mamlakatimizda shakllangan ijtimoiy muhofaza tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mehnatga layoqatsiz aholi va kam ta'minlangan fuqarolarning turmush darajasi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy xususiyatga ega kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Davlat tomonidan fuqarolarimizning yaxshi yashashi uchun budget hisobidan yuqoridagi ijtimoiy qatlamlarga ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida budget nazoratini samarali tashkil etish talab etiladi. Bu maqsadda Moliya organlari, soliq idoralari, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqaruvchi maxsus vakolatli organlar, Moliya vazirlig huzuridagi Nazorat-taftish Bosh Boshqarmasi, jamoat nazorati organlari ijtimoiy ta'minotga yo'naltirilgan mablag'larning maqsadli sarflanishini nazorat qiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga yordam berish maqsadida budget hisobidan qilinayotgan ijtimoiy xarajatlarni sifatli ijrosini ta'minlash uchun moliya va g'aznachilik organlari budget mablag'laridan samarali, ma'lum bir manzil bo'yicha va maqsadli foydalanishni ta'minlashi lozim. Respublikamizda g'aznachilik tizimining joriy etilishi budget mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan hisoblarni hozirgi zamon axborot texnologiyalari asosida tezkor tashkil etish orqali budget harajatlarini samarali boshqarishga erishildi.

Mamlakat davlat budgetining asosiy qismi ijtimoiy-madaniy sohalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Moliya organlarining vazifasi tasdiqlangan budgetda nazarda tutilgan barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirishni ta'minlash hisoblanadi. Bu vazifalarni bajarish uchun tegishli yo'nalishlari bo'yicha xarajatlar to'lovini to'g'ri tashkil qilish zarur.

Moliyalashtirish jarayonlari avtomatlashtirilganda ijtimoiy ta'minot xarajatlarning bo'limlari, bandlari, guruhlari va ob'yektlaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi markazi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus kompyuter dasturlari yordamida bir vaqtning o'zida mazkur moliya organining tarmoq bo'limlari tomonidan va buxgalteriyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjetdan mablag' oluvchi barcha budget tashkilotlari kabi, ijtimoiy ta'minot muassasalari ham tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish uchun qonun hujjalarda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yoki uning hududiy moliya organlariga taqdim etadilar. Tasdiqlangan smeta va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish va ilovalarni kelishish taqdim etilgan hujjalarning tasdiqlangan budget xarajatlari limitlariga va normativlariga hamda budget parametrlariga muvofiqligi tahlili asosida tegishli moliya organlarida qonun hujjalarda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek, amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o‘zgartirishlar ular O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida yoki hududiy moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng amalga kiritiladi.

Yuqoridagi tartib-qoidalarning mustahkam qaramasdan hozirgacha budget xarajatlarini amalga oshirish va hisobini yuritish bo‘yicha bir necha kamchilik va nuqsonlar mavjud. Ularning eng asosiyлари quyidagilardan iborat:

- budget mablag‘laridan foydalanishning samaradorligi nisbatan pastligi;
- budget mablag‘larini maqsadsiz sarflash amaliyoti uchrab turganligi;

- budget daromadlari bo‘yicha rejalar bajarilmagan sharoitda xarajatlar ayrim yo‘nalishlarining moliyalashtirilishida qiyinchiliklarning yuzaga kelayotganligi va boshqalar.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan bir necha vazifalarni belgilab olish zarur:

- eng samarali va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarga budget mablag‘larini yo‘naltirish, ijtimoy xarajatlarni moliyalashtirishning ustuvorligini ta’minlash;

- budget mablag‘laridan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish;

- ijtimoiy nafaqalarni tayinlashda qonun hujjatlariga rioya qilish;

- pensiya va nafaqalarni tayinlashda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida bu xizmatlarni amalga oshiruvchi xodimlarning malakasini tizimli ravishda oshirib borish;

- ijtimoiy ta’minot tizimidagi muassasa va tashkilotlarda budget nazoratini mustahkamlash;

- budget mablag‘larining chegaralanganligi sharoitida ijtimoiy ta’minot tashkilotlar muammolariga keng jamoatchilik e’tiborini qaratish, ijtimoiy ta’minot masalalarida davlat bilan biznes vakillari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini o‘rnatish;

- ijtimoiy xizmatlar sifati va ko‘lamini oshirishda mahallalarning ahamiyatini oshirish va boshqalar.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda qaror topgan ijtimoiy ta’minotning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining daromadlari jihatidan keskin tafovutlarga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iboratdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O ‘quv qo ‘llanma. T.:“Iqtisod-moliya, 2012

2. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: "Iqtisod-moliya, 2007
3. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
4. T.Malikov, N.Haydarov - Budjet daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA, 2007
5. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солиқ сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
6. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2009;556.
7. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
8. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент,"Iqtisod-moliya, 2008
9. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
10. Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.:«Академия. 2005.
11. Nazarova GG, Haydarov NX. International economic relations. Educational Manual. TDIU. 2005.
12. Назарова ГГ, Хайдаров НХ, Ақбаров М. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Т.: МЧЖ "RAM-S. 2007.
13. Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
14. О G'aybullayev, У О'роғов.О 'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. О 'quv qo 'llanma. - Т.: Baktriapress, 2016
15. Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.". Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
16. Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари.". (2017).
17. Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари.". (2017).
18. Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursanova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
19. Ўроқов У Файбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.-21 б, 2016